



FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

Iste'dodlarni kashfetamiz!

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI
FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

**2025–2026-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
ASOSIY OLIMPIADANING IKKINCHI TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI**

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI (10-SINF)

FANIDAN

TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test topshiriqlari kitobi 30 ta (1–30) yopiq turdagi test topshiriqlaridan iborat.
Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball savol kitobida ko'rsatilgan.
Topshiriqlar yopiq turdagi bo'lib, ularda A, B, C va D javob variantlari berilgan.
Ishtirokchi har bir topshiriq uchun faqat bitta to'g'ri javobni tanlashi va javoblar varaqasida mos keluvchi doirachani to'liq bo'yashi kerak.

Ajratilgan vaqt: 60 daqiqa
Savollar soni: 30 ta
Maksimal ball: 50 ball

Ushbu savollar kitobi 8 sahifadan iborat

Fan olimpiadalari markazi
rasmiy telegram sahifasi.
@Fan_olimpiadalari_M

Olimpiada topshiriqlari
yechimlari ushbu telegram
kanalda e'lon qilib boriladi.




© Fan olimpiadalari markazi, 2025

1. [0,9 ball] Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga muvofiqlashtiring.

I. Jamiyat

II. Davlat

III. Umumiy xususiyatlar



a) dastlab ijtimoiy hokimiyat, ya'ni barcha odamlar tomonidan boshqariladigan tuzilma; b) boshqaruvi, eng avvalo, majburlash usuliga asoslangan; c) huquqshunoslik ilmda mavjud tushunchalar; d) odamlarning o'zaro munosabatlari, aloqalari mahsuli; e) ijtimoiy qonunlar ustuvor bo'lgan, yuksak shakllangan mushtarak birlik; f) qiyosiy tarzda murakkab inshootga o'xshatish mumkin.

A) I-d, f; II-a, b, e; III-c

B) I-d, e; II-a, b, f; III-c

C) I-a, d, e; II-b, f; III-c

D) I-b, e; II-a, d, f; III-c

2. [0,9 ball] Quyidagilardan BMT tizimidagi inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro organlarni aniqlang.

1) Inson huquqlari bo'yicha kengash; 2) Inson huquqlari bo'yicha qo'mita; 3) Xotin-qizlarni kamsitishga qarshi qo'mita; 4) Irqiy kamsitishlarga qarshi qo'mita; 5) Qiynoqlarga qarshi qo'mita; 6) Bola huquqlari bo'yicha qo'mita; 7) Qochoqlar huquqlari bo'yicha kengash.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

B) 1, 2, 3, 4, 5, 6

C) 2, 3, 4, 5, 6, 7

D) 1, 3, 4, 5, 6, 7

3. [0,9 ball] Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.

(a) ...muayyan davlat organi yoki bo'linmasining ichki tashkiliy hamda faoliyat tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjat, (b) ...vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilingan huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat.

A) a-soliq; b-normativ-huquqiy hujjat

B) a- normativ-huquqiy hujjat; b- reglament

C) a-reglament; b-normativ-huquqiy hujjat

D) a-hujjat; b-dalil

4. [0,9 ball] Quyidagilardan aybsizlik prezumpsiyasiga oid BO'LMAGAN javobni aniqlang.

A) Shaxsning aybsizlik prezumpsiyasi shaxs huquq va erkinliklarining mustahkam kafolati bo'lib, mazkur tartib jahon tajribasida deyarli barcha mamlakatlar qonunchiligida ifoda etilgan.

B) Aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili ilk bor 1789-yilda Fransiyada qabul qilingan Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasida amalga kiritilgan.

C) O'rta asrlar islom huquqshunosligida mazkur tamoyil "Aybsizlik-asosiy qoidadir" shaklidagi fiqhiy qoida sifatida e'tirof etilgan.

D) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 29-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs unin

muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi.

5. [0,9 ball] Quyidagilarni to'g'ri moslashtiring.

1	1789-yili Fransiyada qabul qilingan Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi, 9-modda	a	Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta'minlangan holda, ochiq sud majlisi yo'li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir.
2	Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 11-modda	b	Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har qanday kishi qonunga muvofiq aybi isbotlanmaguncha begunoh deb sanalish huquqiga ega.
3	Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 14-modda, 2-band	c	Har bir shaxsning aybi aniqlanmaguncha aybsiz hisoblangani sababli shaxsni hibsga olish zarur deb topilgan hollarda kerak bo'lmagan har qanday haddan tashqari qattiq choralar qonun bilan taqiqlanishi zarur.

A) 1-c; 2-a; 3-b

B) 1-c; 2-b; 3-a

C) 1-a; 2-b; 3-c

D) 1-b; 2-c; 3-a

6. [0,9 ball] Quyidagi huquqbuzarlikning belgilarini o'zaro moslashtiring.

1) ijtimoiy xavflilik; 2) huquqqa ziddlik; 3) ayblilik; 4) jazoga loyqlik. a) huquq bilan tartibga solinadigan va muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlar; b) huquqbuzar jamiyat qadriyatlarini toptaydi, inson hayotiga suiqasd qiladi, davlat va insonlarga zarar keltiradi; c) odamning ruhiy jihatdan sog'lom holati hisoblanadi; d) huquqbuzarning qonun yoki huquq normalari belgilab qo'ygan majburiy talablarni buzishi; e) o'z xatti-harakatini tushunadigan va unga javob bera oladigan insonning huquqqa zid, qonun talablariga qarshi xatti-harakatidan kelib chiquvchi harakat yoki harakatsizlik; f) bu har qanday huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortilishi.

A) 1-a, 2-d, 3-e, 4-f

B) 1-b, 2-d, 3-f, 4-e

C) 1-b, 2-d, 3-e, 4-f


D) 1-d, 2-a, 3-e, 4-f

7. [0,9 ball] Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga muvofiqlashtiring.

I. Muqobil xizmat

II. Harbiy xizmat

III. Umumiy xususiyatlar



a) Harbiy xizmatning turlari; b) kontrakt bo'yicha harbiy xizmat; c) fuqarolarning umumiy harbiy majburiyatni bajarishining chaqiruv bo'yicha harbiy xizmat o'rniga iatisodivot. iitimoiv sohaning turli tarmoqlarida kam malaka talab etiladigan (yorc

tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan alohida turidir; d) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

A) I-c; II-d; III-a

B) I-b; II-c; III-a

C) I-a; II-d; III-c

D) I-b; II-c; III-d

8. [0,9 ball] Bo'shliqni to'ldiring.

Qonunchilik palatasi o'zining vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan, shuningdek, palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan (a) ... qabul qiladi. Ular deputatlar umumiy sonining (b) ... ovozi bilan qabul qilinadi.

A) a-qarorlar; b-uchdan bir

B) a-farmoyishlar; b-uchdan ikki

C) a-qonunlar; b-ko'pchilik

D) a-qarorlar; b-ko'pchilik

9. [0,9 ball] Atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishlari qaysi javobda NOTO'G'RI keltirilgan?

A) yashil iqtisodiyotga o'tish

B) iqlim o'zgarishlarga moslashish

C) atom energiyasidan oqilona foydalanish

D) Orol muammosining salbiy oqibatlarini yumshatish

10. [0,9 ball] Quyidagi ma'lumotlarning yakuniy xulosasi (to'g'ri/noto'g'ri) keltirilgan javobni aniqlang.

I. Jamoat birlashmasi kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi.

II. Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta'sis syezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig'ilishini chaqiradilar, unda ustav (nizom, o'zga asosiy hujjat) qabul qilinadi va rahbar idoralar tuziladi.

III. Jamoat birlashmasi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va viloyatlar, Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

A) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri

B) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

C) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

D) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-noto'g'ri

11. [1,5 ball] Quyidagi bo'shliqni to'ldiring.

Hokimiyat vakolatlari qonun chiqaruvchi oliy vakillik organi – (a) ... , ijro hokimiyatining oliy organi – (b) ... va sud hokimiyati – odil sudlovni amalga oshiruvchi (c) ... o'rtasida taqsimlangan.

A) a-Oliy Majlis; b-Vazirlar Mahkamasi; c-Oliy sud

B) a-Oliy Majlis; b-Vazirlar Mahkamasi; c-Konstitutsiyaviy sud

C) a-Prezident; b-Vazirlar Mahkamasi; c-Oliy sud va Konstitutsiyaviy sud

D) a-Oliy Majlis; b-Vazirlar Mahkamasi; c-Oliy sud va Konstitutsiyaviy sud

12. [1,5 ball] Quyidagi tushunchalarni o'zaro muvofiqlashtiring.

1) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart, deganidir;

2) davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, shu jumladan, sudlar tomonidan konstitutsiya normalarini huquqni qo'llash amaliyotida bevosita

3) jamiyatdagi munosabatlarning ma'lum bir holati, unga davlatning huquqiy me'yorlarida mavjud bo'lgan barcha qonun-qoidalarga majburiy ravishda rioya qilinishi natijasida erishiladi.

a) Qonun ustuvorligi; b) Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi; c) Huquqiy tartibot.

A) 1-a, 2-b, 3-c

B) 1-a, 2-c, 3-b

C) 1-b, 2-a, 3-c

D) 1-c, 2-b, 3-a

13. [1,5 ball] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlariga oid quyidagi qaysi qoidalarga ASOSLANMAYDI?

1) Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish – davlatning majburiyati; 2) Inson huquqlari va majburiyatlari unga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lishi va har kimning tengligi; 3) Inson huquqlari va erkinliklari tizimi xalqaro huquq normalariga mos kelishi 4) Fuqarolarning huquq va erkinliklari Prezident tomonidan himoya qilinishi; 5) Fuqarolarning huquq va erkinliklari sud organlari tomonidan himoya qilinishi; 6) Inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning huquqlarini poymol qilmaslik.

A) 4, 5

B) 2, 4

C) 1, 3

D) 2, 6

14. [1,5 ball] 15 yoshdan kichik shaxslar televideniye va radioeshittirishda mehnat faoliyatini boshlash uchun qanday hujjatlar talab etiladi?

A) shaxs guvohnomasi va mutaxassislik guvohnomasi

B) ota-onaning har ikkisinining roziligi

C) 15 yoshdan kichik shaxslarning mehnat qilishi ta'qiqlangan.

D) 15 yoshdan kichik shaxslar televideniye va radioeshittirishda tashkilotlarida mehnat qilishi ta'qiqlanadi.

15. [1,5 ball] Shaxsning uy-joyga bo'lgan huquqlari qanday hujjatlar bilan tartibga solinadi?

A) Uy-joy kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Shaharsozlik kodeksi

B) Uy-joy kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi

C) Turar-joy kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Shaharsozlik kodeksi


D) Uy-joy kodeksi, Mehnat kodeksi, Shaharsozlik kodeksi

16. [1,5 ball] Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga muvofiqlashtiring.

I. Pensiya

II. Nafaqa

III. Umumiy xususiyatlar



a) yetarli ish stajiga ega bo'lgan fuqarolar uchun belgilanadi; b) ijtimoiy himoya xizmati; c) yetarli ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga belgilanadi; d) ijtimoiy ta'minot turlari.

A) I-c; II-d; III-a

B) I-b; II-c; III-a

C) I-a; II-d; III-c

D) I-a; II-c; III-d

17. [1,5 ball] Huquqiy xulq-atvor xususiyatlariga taalluqli BO'LMAGAN javobni aniqlang?

1) ijtimoiy foydalilik; 2) onglilik va ixtiyoriylik; 3) huquq normalariga muvofiqlik; 4) davlat tomonidan muhofaza etilishi; 5) jinoyatchilikning oldini olish; 6) qonun oldida tenglik.

A) 1, 2

B) 2, 5

C) 5, 6

D) 3, 6

18. [1,5 ball] Vazirlar Mahkamasining tarkibini aniqlang.

1) O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri; 2) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining yordamchilari; 3) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi; 4) O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosarlari; 5) vazirlar; 6) Davlat maslahatchilari.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6

B) 1, 2, 3, 4, 5

C) 1, 3, 4, 5

D) 1, 2, 3, 4, 6

19. [1,5 ball] Quyidagilardan qay biri chet el fuqarolarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat HISOBLANMAYDI?

A) identifikatsiyalovchi ID-karta

B) yashash guvohnomasi

C) tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma

D) O'zbekiston Respublikasida siyosiy boshpana berish to'g'risida guvohnoma

20. [1,5 ball] Antik davrdagi inson huquqlariga oid BO'LMAGAN javobni aniqlang.

A) Antik davrning ko'plab olimlari barcha kishilarning tabiatan tengligi g'oyasini ilgari surganlar.

B) Antik davrning ko'plab olimlari insonlarning ozod kishilar va qullarga bo'linishiga salbiy munosabatda bo'lganlar.

C) Inson qaysi davlat fuqarosi bo'lishidan qat'iy nazar, dunyoga kelishi bilan tabiiy huquqlarga ega bo'ladi.

D) Qadimgi yunon faylasufi Protagorning "Barcha ashyolarning mezoni insondir" degan fikrining zahirida insonparvarlik g'oyasi yotadi.

21. [2,6 ball] Quyidagi holatlar qanday huquqiy munosabat ekanligini aniqlang.

1) Elyor ismli bola ingliz tilini o'rganish uchun o'quv markazidagi kurslarga qatnashmoqda.	a) fuqaroviy-huquqiy munosabat
2) Zafar ismli bola svetoforning qizil chirog'i yonib turgan bo'lishiga qaramasdan, yo'lni kesib o'tdi.	b) ma'muriy huquqbuzarlik munosabatlari
3) Ahrorjon ismli bola maktabga kech qolmaslik uchun jamoat transportida yo'lga chiqdi.	c) mehnat munosabatlari
4) Husniddin 144-umumta'lim maktabiga tarix o'qituvchisi lavozimiga ishga kirish uchun shartnoma imzoladi.	d) jinoiy-huquqiy munosabat

A) 1-a, 2-b, 3-a, 4-c

B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c

C) 1-a, 2-a, 3-b, 4-c

D) 1-a, 2-b, 3-c, 4-a

22. [2,6 ball] Siyosiy huquq guruhlarini o'zaro moslashtiring.

1) davlat hokimiyati mexanizmining shakllanishi va faoliyatida ishtirok etish; 2) jamiyatda ishtirok etish huquqi.

a) saylov huquqi, referendumda ishtirok etish huquqi, murojaat qilish huquqi; b) birlashish huquqi, namoyish o'tkazish huquqi; c) saylov huquqi, namoyish o'tkazish huquqi; d) murojaat qilish huquqi, birlashish huquqi.

A) 1-a, 2-b B) 1-b, 2-a C) 1-c, 2-b D) 1-d, 2-b

23. [2,6 ball] Muqobil xizmat haqida keltirilgan NOTO'G'RI javobni aniqlang.

1) Muqobil xizmat fuqarolarning umumiy harbiy majburiyatni bajarishining chaqiruv bo'yicha harbiy xizmat o'rniga iqtisodiyot, ijtimoiy sohaning turli tarmoqlarida kam malaka talab etiladigan (yordamchi) ishlarni, shuningdek, falokatlar, halokatlar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan alohida turidir; 2) 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan, harbiy ro'yxatda turuvchi va xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan fuqarolar, agar ularning diniy ta'limoti qurol-yarog'dan foydalanish va Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga yo'l qo'ymasa, ro'yxatga olingan diniy tashkilotlar hisobida tursalar, muqobil xizmat huquqiga ega; 3) Muqobil xizmat-O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir; 4) Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan, salomatligiga ko'ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladi; 5) Muqobil harbiy xizmat kalendar hisobida 12 oy etib belgilanadi; 6) Muqobil xizmatning muddati 24 oyni, oliy ma'lumotli fuqarolar uchun esa 18 oyni tashkil etadi.

A) 2, 3, 4 B) 3, 4, 5 C) 4, 5, 6 D) 3, 4, 6

24. [2,6 ball] Bo'shliqni to'ldiring.

(a)...-mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining samarali faoliyat ko'rsatishida kollegial organ sifatida ish olib boradi.

(b)... o'z hududlarida yashayotgan fuqarolarning manfaatlarini davlat manfaatlari bilan birga uyg'unlashtiradi.

A) a-Vazirlar Mahkamasi; b-Mahalliy davlat hokimiyati

B) a-Prezident; b-Mahalliy davlat hokimiyati

C) a-Vazirlar Kengashi; b-Xalq deputatlari Kengashi

D) a-Bosh vazir; b-Mahalliy davlat hokimiyati

25. [2,6 ball] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 92-moddasida keltirilgan quyidagi huquq normasida qanday tarkibiy elementlar (gipoteza, dispozitsiya, sanksiya) mavjudligini aniqlang.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin.

A) gipoteza va dispozitsiya

B) faqat dispozitsiya

C) faqat gipoteza

D) dispozitsiya va sanksiya

26. [2,6 ball] Quyida qanday shaxsning ta'rifi keltirilgan?

"etnik, til va madaniy-tarixiy nuqtayi nazardan o'zini o'zbeklar yoki qoraqalpoqlar sifatida identifikatsiya qilgan hamda O'zbekiston bilan har tomonlama aloqada bo'lish xohishida bo'lgan xorijda istiqomat qilayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar".

- A) vatandosh
- B) O'zbekiston fuqarosi
- C) chet el fuqarosi
- D) fuqaroligi bo'lmagan shaxs

27. [2,6 ball] Meros huquqiga oid to'g'ri javobni aniqlang.

- A) Merosni olish ixtiyoriy emas, balki majburiydir.
- B) Merosxo'r meros ochilgan kundan e'tiboran istalgan vaqtda unga qoldirilgan merosdan voz kechishi mumkin emas.
- C) Agar vafot etgan shaxs o'ziga tegishli mol-mulkni merosxo'rlarga taqsimlash bo'yicha vasiyatnoma qoldirmagan bo'lsa, merosni taqsimlash meros qoldiruvchi fuqarosi bo'lgan yoki doimiy yashagan davlat qonuni bilan taqsimlanadi.
- D) Fuqaro o'ziga tegishli bo'lgan barcha mol-mulkini yoki uning bir qismini faqat merosxo'rlarga qoldira oladi. Merosxo'r hisoblanmaydigan shaxslarga, tashkilotlarga, davlatga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga vasiyat qilib qoldirishi mumkin emas.

28. [2,6 ball] Normativ-huquqiy hujjatlar qanday xususiyatlari bilan huquq manbalarining boshqa turlaridan farqlanadi?

1) normativ-huquqiy hujjatlar vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilinib, bekor qilinadi; 2) normativ-huquqiy hujjatlar huquqiy qoidaning mazmunini, huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlarini aniq belgilaydi; 3) normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan qoidalar bajarilmagan yoki buzilgan taqdirda davlatning majburlov kuchi bilan tartibga solinadi; 4) Normativ-huquqiy hujjatlar davlat oliy vakillik organlarining eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan hujjati hisoblanadi.

- A) 1, 2, 3
- B) 1, 2, 3, 4
- C) 1, 2, 4
- D) 1, 3, 4

29. [2,6 ball] Fransiya, Italiya, Polsha davlatlarida hukumat qanday nomlanadi?

- A) Davlat Kengashi
- B) Vazirlar Makhamasi
- C) Vazirlik
- D) Vazirlar Kengashi

30. [2,6 ball] Turli mamlakatlardagi prezidentlik saylovlarini o'zaro muvofiqlashtiring.

1) parlament (xalq vakillari) saylaydi; 2) prezidentni saylash uchun maxsus anjuman chaqiriladi; 3) prezidentni saylovchilar vakillari saylaydi; 4) prezidentni bevosita xalq saylaydi.
a) AQSH; b) Germaniya; c) Italiya, Chexiya, Polsha; d) Fransiya, Rossiya, Qozog'iston.

- A) 1-c; 2-b; 3-a, 4-d
- B) 1-d; 2-b; 3-a, 4-c
- C) 1-c; 2-a; 3-b, 4-d
- D) 1-c; 2-d; 3-a, 4-b